

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

JAMOAVIY SPORT TURLARIDA O'ZARO MUNASABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Majidov Jasur Baxtiyarovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: majidov-jdpi@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5529-5462>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada jamoaviy sport turlarida o'zaro munosabatlar kechishining psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Xususan futbol jamoalarida K.Tomasning shaxslararo munosabatlarni o'rganish usubi asosida olib borilgan empirik tadqiqot natijalari keltirib o'tilgan. Olingan natijalar asosida xulosalangan.

Kalit so'zlar: sport jamoasi, guruh, o'zaro munosabatlar, futbol jamoalari, psixologik iqlim.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В КОМАНДНЫХ ВИДАХ СПОРТА

Мажидов Жасур Бахтиярович

Джизакский государственный педагогический университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В данной статье рассматриваются психологические особенности межличностных отношений в командных видах спорта. В частности, представлены результаты эмпирического исследования, проведённого в футбольных командах с использованием методики К. Томаса по изучению межличностных отношений. На основе полученных результатов были сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: командные виды спорта, группа, межличностные отношения, футбольные команды, психологический климат.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN TEAM SPORTS

Majidov Jasur Baxtiyarovich

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

Introduction. This article discusses the psychological characteristics of interpersonal relationships in team sports. In particular, it presents the results of an empirical study conducted among football teams using K. Thomas's method for investigating interpersonal relations. Conclusions were drawn based on the findings obtained.

Keywords: team sports, group, interpersonal relationships, football teams, psychological climate.

Kirish. Sport psixologiyasida sport jamoalaridagi psixologik iqlim, jamoa a'zolarining bir-biri bilan o'zaro munosabatlari, bir-birini tushunishi, qabul qilishi (ijtimoiy persepsiya), sportchining jamoaga moslashuvi va ijtimoiy adaptatsiyasi borasida olib borilgan tadqiqotlar ancha jonlanib bormoqda. Bu boradagi so'nggi tadqiqotlarda kichik guruh sifatida sport jamoalaridagi jipslik, jamoadagi psixologik iqlim, guruhiy o'zaro ta'sir, guruhiy ijtimoiy persepsiya, guruhiy kommunikatsiya, sportchilarning psixologik tayyorgarligi, murabbiy va sportchi munosabatlari mavzulariga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.


Sport guruhi — bu bir qator quyi tuzilmalardan tashkil topgan, ijtimoiy jihatdan murakkab bo'lgan daraja, rol, aloqa, o'zaro ta'sir, bo'ysunish, vertikal (murabbiy – sportchi) va gorizontal (sportchi – sportchi) shaxslararo munosabatlar, hamjihatlik va muvofiqlashtirish kabi tarkibiy tuzilmalardan iboratdir. Shuni yodda tutish kerakki, ushbu quyi tuzilmalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik va munosabatlar mavjud. Shunday qilib, sport guruhining tuzilishi nisbatan tartibli va optimal ravishda o'zaro bog'liq bo'lgan quyi tuzilmalar tarmog'i sifatida ifodalanishi mumkin. Ularning har biri kichik guruhlar mavjudligining umumiy qonunlariga muvofiq rasmiy va norasmiy tuzilmalarga bo'linadi. Rasmiy tuzilma o'quv va raqobatbardosh faoliyat jarayonida yuqori tashkilotlarning buyruqlari, ko'rsatmalari va murabbiyning talablari, sportchilar o'rtasidagi munosabatlar tufayli yaratiladi. Norasmiy tuzilma esa o'quv va raqobatbardosh faoliyat jarayonida

hamdardlik, o'zaro afzallik, umumiy manfaatlar va ehtiyojlarga asoslangan guruhdagi munosabatlarni rivojlantirishning ma'lum bir "erkinlik darajasi" tufayli yaratiladi. Rasmiy tuzilmaning asosiy xususiyati shundaki, u shaxslarning guruhga birlashishiga yordam beradi va o'zaro aloqalarning tizimliliigi hamda ularning sifatini tartibga soladi. Bu rasmiy tuzilmaning norasmiy tuzilmaga nisbatan cheklovchi funksiyasini namoyish etadi [11].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review). Sport guruhi kichik guruhlarning turlaridan biridir. Bunday guruhga kamida ikki va 25 kishidan ko'p bo'lmagan odamlar kiradi. E. V. Melnik va J. K. Shemet sport jamoasining xususiyatlaridan biri sifatida a'zolar sonini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, sport guruhi kamida 2 va 25 kishidan ko'p bo'lmagan guruhdan (masalan, futbolchilar jamoasi — 11 o'yinchi) iborat bo'ladi [14].

Sport jamoasi tarkibiga nafaqat sportchilar, balki murabbiylar, shifokorlar, massaj terapevtlari, ilmiy va texnik xodimlar ham kiradi. Ularning umumiy faoliyatdagi ishtirokisiz jamoa normal taraqqiy eta olmaydi.

Quyida biz A. V. Rodionova bo'yicha sport guruhida o'zaro munosabatlarning ifodalanishini keltirib o'tamiz [15].



1-rasm: Sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlarning ko'rinishlari

A. Kerron, S. R. Brey va M. A. Eyslar Kanadadagi 18 ta basketbol va 9 ta futbol jamoasida, asosan, faoliyat bilan shartlangan jipslik, jamoaning muvaffaqiyatini idrok qilishdagi o'xshashlik va bog'liqliklarni aniqlash hamda jipslik tushunchasini sportchilarning individual idrok qilishini o'z tadqiqotlarida o'rganishga harakat qilishgan. Ularning fikriga ko'ra, guruh a'zolari sonining ko'payishi bilan jipslikka ehtiyoj kuchayishi namoyon bo'ladi, faoliyat bilan shartlangan jipslik esa jamoa tomonidan erishiladigan muvaffaqiyatning asosi sifatida baholanadi [2, 16].

R. Martensning fikriga ko'ra, yuqori hamjihatlikka ega jamoalarda a'zolar yuqori sport ko'rsatkichlariga erishishdan ko'ra, o'rtoqlari bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish haqida ko'proq qayg'uradilar. Murabbiylarning bunday jamoalarda maqsadga erishish uchun motivatsion munosabatni o'rnatishga urinishlari ba'zan nizolarga olib

keladi. Shu bilan birga, R. Martens ko'rsatganidek, do'stona munosabatlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan jamoalarda sportchilar raqobatbardosh faoliyatning bir xil yutuqlariga qaramay, ushbu ehtiyoj past bo'lgan jamoalarga nisbatan o'z faoliyatidan ko'proq qoniqish bildiradilar. R. Martensning yuqorida keltirilgan tadqiqotlari ko'pchilikda qiziqish uyg'otadi. Unda jamoada maqsadga erishish motivatsiyasi muloqot motivatsiyasidan ko'ra muvaffaqiyat uchun samaraliroq ekanligi ko'rsatilgan. Biroq eng katta muvaffaqiyatga har ikkala omilga ham asoslangan jamoalar erishishi alohida ta'kidlab o'tilgan. R. Martens o'z tadqiqotlarida basketbol jamoalarining birdamligi, ularning faoliyati natijalari va qoniqish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqdi. Jamoalarning birdamligini faqat simpatiya va antipatiya asosida o'rganish yetarli emasligiga haqli ravishda ishongan holda, u boshqa mezonlarni ham kiritdi. Ular quyidagilar:

- o'yinchining imkoniyatlari va qobiliyatlarini baholash (o'yin fazilatlarini bo'yicha baholash);
- birgalikdagi faoliyatni yoqimli qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;
- sportchining jamoadagi boshqa a'zolariga ta'sirini nazarda tutish;
- sportchining jamoaga mansublik hissi qanchalik kuchli ekanligini, ushbu mansublik sportchi uchun qanchalik ahamiyatga ega yoki yo'qligini baholash;
- umuman jamoadagi o'zaro munosabatlar, jamoa ta'siri va hamjihatlik darajasi kabilar [13].

R. Martens xulosalariga ko'ra, jamoadagi sportchilar bir-birlari bilan yaqin do'stlik rishtalari orqali bog'langan bo'lishlari shart emas (ba'zan yosh farqi, oilaviy ahvol, turli milliy mentalitetlar va boshqalar tufayli buni talab qilish qiyin) va jamoada qandaydir ijtimoiy ideal bo'lishi ham shart emas. Umuman, nizolarga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Jamoa yuqori natijalarni barqaror o'rtacha darajadagi hissiy birdamlikda ham ko'rsatishi mumkin. Kuchli jangovar jamoani shakllantirish uchun uni nizolardan xalos qilish emas, balki sportchilarni ularni yengishga o'rgatish muhimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, jamoadagi normal psixologik iqlim zaruriy shartdir. Bu esa hamjihatlikning jamoa hayotidagi muhim qadriyatli birlik sifatida kelgusi istiqbol uchun juda muhim ekanligini ko'rsatadi [17].

Futbolchilarning boshqalar bilan munosabatlarining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, bu borada Manzi va Gozzoli (2009), Larsen (2012) va Gledhill (2017) tomonidan turli yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda yosh futbolchilarning jamoada va jamoadan tashqarida o'zaro munosabatlarining ta'siri o'rganilgan va shu asosda sportchilarning jamoaga moslashishi, futbolchilarning iste'dodini rivojlantirish hamda emotsional barqarorlikning ijtimoiy-psixologik omillari ko'rsatib berilgan [9, 7, 3].

Individual va jamoaviy sportda murabbiy va sportchi munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari masalasi D. J. Rhind va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda sportchilar va ularning murabbiylari o'rtasidagi yaqinlik (iliq munosabat), sodiqlik (vaqt o'tishi bilan yaqinlik aloqasini saqlab qolish) va bir-birini tushunish individual sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarda jamoaviy sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarga nisbatan ko'proq qoniqishni yuzaga keltirishi ma'lum bo'ldi [3, 19].

Futbol jamoasi kichik sport guruhi hisoblanadi. Shu boisdan kichik guruhlariga xos bo'lgan qonuniyatlar, jumladan, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo o'zaro munosabatlar taranglashib borishi tabiiy holdir. Chunki shaxslarning bir-birlari oldida mas'uliyatlarining oshishi va bir-birlarini yaqindan bilishlari ularning o'rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo'lishini talab qiladi [1, 6].

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Biz o'z tadqiqotimizda futbol jamoalarida ishchanlik yoki kommunikativlik sifatlaridan qaysi biri ustun ekanligini aniqlash maqsadida shaxslararo munosabatlar jarayonida nizoli vaziyatlarga sportchilarning munosabatini o'rganish uchun K. N. Tomas so'rovnomasidan foydalandik. Uning natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. K.Tomasning shaxslararo munosabatlarni o'rganish so'rovnomasining dispersion tahlili, (ANOVA)

Shkala	Futbol jamoasi	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	F	Ishonch darajasi p<0,05
Raqobat	Zomin	6,4400	2,38188	,250	,780
	So'g'diyon a	6,7917	2,10546		
	Nasaf	6,3529	1,93459		
Hamkorlik	Zomin	5,2400	1,78606	,826	,442
	So'g'diyon a	5,8750	1,82525		
	Nasaf	5,2353	2,27842		
Murosa qilish	Zomin	6,4000	1,87083	3,198	,048*
	So'g'diyon a	5,2500	1,56733		
	Nasaf	6,4118	1,93839		
Tortishuvdan kochish	Zomin	4,8400	2,13464	,214	,808
	So'g'diyon a	4,9167	1,76725		
	Nasaf	5,2353	2,04724		

Vaziyatga moslashish	Zomin	7,0800	1,93477	,202	,817
	So'g'diyona	7,1250	1,67624		
	Nasaf	6,7647	2,13686		

Izoh: $p < 0,05^*$, $p < 0,01^{**}$

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Zomin professional futbol jamoasida raqobat usuli bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 6,44 balni tashkil etdi, hamkorlik usulida o'rtacha ko'rsatkich 5,24 balni, murosa qilish usulida 6,4 balni, tortishuvdan qochish usulida 4,84 balni, vaziyatga moslashish usulida esa 7,08 balni tashkil etdi.

Jamoadi raqobatdan farqli o'laroq, o'z manfaatlarini boshqa odamlarning manfaati uchun qurbon qila olish (vaziyatga moslashish usulida) ustanovkalari yaxshi shakllanganligidan dalolat beradi. Bu esa jamoaviy o'yin hisoblangan futbolda juda ham muhim xususiyat sanaladi. Umuman olganda, jamoadagi o'zaro munosabatlarning kechishi ko'proq ziddiyatli munosabatlardan ko'ra hamkorlikka asoslangan jamoaviy faoliyatga yo'nalganligi, o'z pozitsiyasini himoya qilishda ba'zan raqobatga kirishishga xos bo'lgan munosabatlar tizimi mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin. Lekin sportchilarning jamoaga moslashuvi va jamoada o'rnatilgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga amal qilishga bo'lgan intilishi ham yuqori darajada, deb aytishimiz mumkin.

O'zaro munosabatlarning bunday kechishi, ijtimoiy psixologiyada ifodalab berilgan kichik guruhlariga xos qonuniyatlarga tayanilsa, futbol jamoasi kichik guruh sifatida sportchilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, ularning o'rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo'lishini talab qiladi. Demak, aytishimiz mumkinki, kichik guruh sifatida futbol jamoasi qanchalik uyushgan bo'lmasin, o'zaro munosabatlarning to'g'ridan to'g'ri amalga oshishi tufayli ba'zan nizolar kelib chiqishini ta'kidlash joiz [8].

Ya. A. Kolomeyev va Yu. L. Xaninlarning ta'kidlashicha, sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlar jamoadagi boshqaruv tizimi samaradorligiga ham bevosita bog'liq bo'ladi [11, 12].

Tadqiqot natijalari asosida So'g'diyona futbol jamoasida o'zaro munosabatlarning kechishini quyidagicha izohlash mumkin:

Raqobat shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 6,79 balni tashkil etdi, hamkorlik shkalasi 5,87 balni, murosa qilish 5,25 balni, tortishuvdan qochish 4,91 balni, vaziyatga moslashish 7,12 balni tashkil etdi. Mazkur jamoada ham o'zaro munosabatlarning kuchli raqobat asosiga xos tarzda kechishi kuzatildi. Raqobat shkalasining o'rtacha ko'rsatkichi 6,79 balni tashkil qildi. Raqobat shkalasi — muloqot jarayonida bir tomonning ikkinchi tomon ustidan hukmronligini namoyon qilgan holda muloqot vaziyatini boshqarishga va butun jarayonni o'z qo'liga olishga harakat qilishini anglatadi. Bu esa o'zaro munosabatlarning keskinlashuvi va vaqti kelib kattaroq nizolarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Demak, jamoada raqobat muhiti negizida o'zaro ziddiyatlar tez-tez sodir bo'lib turishi hamda jamoa a'zolari guruh ichida referent guruh shaklida ishtirok etib, o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga harakat qilishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu jamoada ham vaziyatga moslashish shkalasida yuqori ball kuzatilib, mazkur shkala bo'yicha jamoaning o'rtacha qiymati 7,12 balni tashkil etdi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, jamoada bu, raqobatdan farqli o'laroq, o'z manfaatlarini boshqa odamlarning manfaati uchun qurbon qila olish ustanovkalari yaxshi shakllanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, sportchilarning jamoaga moslashishi va jamoada o'rnatilgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga amal qilishga intilishi yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, jamoadagi o'zaro munosabatlarning kechishi ko'proq ziddiyatli munosabatlar bilan birga hamkorlikka asoslangan jamoaviy faoliyatga, jamoa manfaatini umumiy manfaat sifatida qabul qilish va bu jamoada o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin.

K. Tomas nazariyasiga binoan raqobat va vaziyatga moslashish shkalasini tanlash ko'pincha yangi nizolarning paydo bo'lishiga ham yo'l ochadi yoki nizolarning oxirigacha bartaraf etilishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni keltirib chiqaradi [7; B. 91].

Nasaf futbol jamoasida shaxslararo munosabat bo'yicha tadqiqot natijalari quyidagicha mazmunga ega bo'ldi:


Raqobat shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 6,35 balni tashkil etdi, hamkorlik 5,23 balni, murosa qilish 6,40 balni, tortishuvdan qochish 6,41 balni, vaziyatga moslashish 6,76 balni tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur sport jamoasida ham o'zaro munosabatlarda murosaga erishish va vaziyatga moslashish shkalalarida yuqori ballar qayd etilib, jamoadagi o'zaro munosabatlar kichik guruhlariga xos bo'lgan qonuniyatlar doirasida kechadi, ya'ni kichik guruhlarida o'zaro aloqalarda doimo aniqlik bo'lishi talab qilinadi va bu ko'pincha ziddiyatlarning ham tez-tez namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Biz yuqorida professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarda sportchilarning nizoli vaziyatlarga munosabati tavsiflarini keltirib o'tdik. Lekin ko'plab sport sohasi mutaxassislari va olimlar jamoada nizolarning yuzaga kelib turishining guruh rivojlanishidagi ijobiy tomonlarini ham ta'kidlab o'tadilar. M. A. Novikovning xulosasiga ko'ra, guruhning muayyanligi ijobiy holat. Lekin ba'zi hollarda, umuman olganda kamroq holatlarda, bu guruhning kelgusi rivojida tormoz bo'ladi, chunki uning qayishqoqligi yo'qolishiga, holatlarning bir xilligiga, ya'ni sportda akademizm deb ataladigan holatga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir xillik holatlari hissiyotlarning bir xilligiga olib keladi. Bunday uslubni, ya'ni bir xillikni o'zgartirish nafaqat kerak, balki zarur. Bunday guruh holatlarining terapiyasi turli ta'sirlar ostida, xususan nizoli vaziyatlarda tarkibning o'zgarishi va maqsadli ravishda keltirib chiqariladigan ixtiloflar paydo qilishda muhim. Ayrim hollarda murabbiy jamoadagi ba'zi a'zolar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishidan cho'chimasligi kerak, chunki nizodan ongli ravishda foydalanib, yangi hissiyot va g'oyalarning paydo bo'lishi, guruhning qotib qolishiga qarshi ishlatiladi, deya ta'kidlab o'tadi [14].

Jamoaviy faoliyat, jamoada bo'lish sportchining ba'zi nizoli vaziyatlardagi tajovuzkorligi holatini o'zgartiradi

(shaxsning bu xarakteristikasi ekstrapunitivlik deb ataladi). Yuqori darajadagi tajovuzkor kishilar (jamoadagi o'rtoqlariga kuyib-pishishlari, boshqalarning emotsional holatiga moslashishi), ya'ni empatiya tufayli pasaytiriladi. Tajovuzkorlik raqibga qaratilgan "sport g'azabi"ga aylanadi [11].

Biz tadqiqotimizda K. Tomas so'rovnomasidan olingan natijalarning o'zaro munosabatlarda qay darajada kechishini yanada aniqroq ko'rsatish uchun bir omilli dispersiyaviy tahlilni amalga oshirib, jamoalardagi futbolchilarning o'zaro munosabatlarda nizoli vaziyatga munosabat tavsifi nuqtai nazaridan farqlarni tahlil qilishga harakat qildik. Yuqoridagi 1-jadvaldan ham ko'rinib turibdiki, murosa qilish shkalasida ishonch darajasidagi farqlar ($F=3,19$; $p<0,05$) kuzatildi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Nasaf va Zomin futbol jamoalarida murosachilik shkalasida yuqori ko'rsatkichlar namoyon bo'lib, ushbu jamoalar shaxslararo ziddiyatli masalalarda murosa yo'li bilan vaziyatni yumshatishga harakat qilar ekanlar. Murosa qilish shkalasidagi farqlarni quyidagi 2-rasmda yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin.



2-rasm.K.Tomass so'rovnomasida "Murosa qilish" shkalasining futbol jamoalaridagi ko'rsatkichlari

Umuman olganda, yuqorida ko'rib o'tgan nizoli vaziyatga munosabat shkalalarida barcha futbol jamoalarida **vaziyatga moslashish** shkalasi yuqori ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, sportchilarda jamoa manfaatlariga bo'ysunish yuqori darajada namoyon bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, jamoaviy o'yin sifatida futbol nafaqat shaxsning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari takomillashuviga, balki individual qobiliyatlarining rivojlanishiga, irodaviy sifatlarning tarkib topishiga, jamoa a'zolari bilan munosabatlari asosida muhim ijtimoiy tajribalarni egallashiga, ijtimoiy ong taraqqiy etishiga, boshqalar oldida mas'uliyat hissining tarkib topishiga, bir so'z bilan aytganda, shaxsning shakllanishi va kamol topishida muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni bildiramiz:

1. Futbol haqiqiy atletik o'yin sifatida nafaqat shaxsning jismoniy kamolotiga ta'sir ko'rsatadi, balki jamoaviylikka xos xislatlar: do'stlik, sheriklik, o'zaro yordam tuyg'usini tarbiyalaydi, mas'uliyat hissi, sheriklar va raqiblarga hurmat, intizom, faollik kabi qimmatli axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi.
2. Sportchilarda o'zaro munosabatlar jarayonida ularning ampuasi ta'sir ko'rsatmas ekan. Ular o'zaro munosabatlarda vaziyatga moslashish va raqobat usullaridan ko'proq foydalanar ekan. Ziddiyatli masalalarda esa murosachilik yo'li bilan vaziyatni yumshatishga harakat qilar ekanlar. Shu bilan birgalikda, sportchilarda jamoada o'rnatilgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga amal qilish, jamoaning manfaati uchun vaziyatga moslashishga intilish namoyon bo'ldi.
3. Futbol jamoasi kichik guruh bo'lganligi bois, o'zaro munosabatlarda ziddiyatlar tez-tez sodir bo'lib turishi tabiiy holat. Ushbu ziddiyatli vaziyatlarda murabbiy va sportchilar o'rtasida o'zaro tushunish, samarali muloqot hamda yuqori ishchanlik muhitini yuzaga keltirishda profilaktik tadbirlar yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramova F. A. *Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2007. – 166 b.
2. Eys M. A., Carron A. V. Role Ambiguity, Task Cohesion and Task Self-Efficacy in Hockey // *Small Group Research*. – 2001. – Vol. 32. – P. 356–373.
3. Gledhill A., Harwood C., Forsdyke D. Psychosocial Factors Associated with Talent Development in Football: A Systematic Review // *Psychology of Sport and Exercise*. – 2017. – Vol. 31. – P. 93–112.
4. Jowett S., Adie J. W., Bartholomew K. J., Yang S. X., Gustafsson H., Lopez-Jiménez A. Motivational Processes in the Coach-Athlete Relationship: A Multi-Cultural Self-Determination Approach // *Psychology of Sport and Exercise*. – 2017. – Vol. 32. – P. 143–152.
5. Junge A., Dvorak J., Rösch D., Graf-Baumann T., Chomiak J., Peterson L. Psychological and Sport-Specific Characteristics of Football Players // *The American Journal of Sports Medicine*. – 2000. – Vol. 28, Suppl. 5. – P. S22–S28.
6. Karimova V. M. *Ijtimoiy psixologiya: darslik*. – Toshkent, 2007. – 176 b.

7. Larsen C., Alfermann D., Christensen M. Psychosocial Skills in a Youth Soccer Academy: A Holistic Ecological Perspective // *Sport Science Review*. – 2012. – Vol. 21.
8. Majidov J. B. Professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlar shakllanishiga nizoli vaziyatlarning ta'siri // *Pedagogik mahorat*. – 2023. – № 6. – B. 47.
9. Manzi C., Gozzoli C. *Sport: Prospettive Psicosociali*. – Milano: Carocci, 2009.
10. Ильин Е. П. *Психология общения и межличностных отношений*. – СПб.: Питер, 2009. – 576 с.
11. Ильин Е. П. *Психология спорта*. – СПб.: Питер, 2012. – 352 с.
12. Конькова А. А. Психологический климат и межличностные отношения в команде // *Спортивный психолог*. – 2015. – № 4. – С. 36–44.
13. Кретти Б. Дж. *Психология в современном спорте* / пер. с англ. Ю. Л. Ханина. – М.: Физкультура и спорт, 1978. – 224 с.
14. Огородова Т. В. *Психология спорта: учебное пособие*. – Ярославль, 2013. – 120 с.
15. *Психология физической культуры и спорта* / под ред. А. В. Родионовой. – М., 2010.
16. Симопуло И. А. Психология спорта: проблемы и перспективы // *Вестник Калужского университета*. – 2010. – С. 67–74.
17. URL: http://www.docme.ru/doc/1176837/7566.formirovanie-polozhitel._nogo-social._no-psihologichesko.
18. URL: https://knowledge.allbest.ru/psychology/2c0b65635b3ac78b5d43b88521306c27_0.html.
19. URL: <https://xreferat.com/103/3214-1-psihologicheskiiy-klimat-i-mezhlichnostne-otnosheniya-v-komande.html>.